

Chirchiq shahar
11-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot o'qituvchisi
K.A. Muhammadiyevaning
5-sinf uchun adabiyot fanidan
bir soatlik dars ishlanmasi

Mavzu: Fe'l-so'z turkumi

2015-2016-o'quv yili



Sana:5.10.2015

Sinf:6-"A"

Fan: ona tili

Dars mavzusi: Fe'l-so'z turkumi

Darsning maqsadi:a)**ta'limiy maqsad:**o'quvchilarga fe'l haqida nazariy ma'lumot berish;

b)**tarbiyaviy maqsad:**o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlashga o'rgatish;

d)**rivojlantiruvchi metod:**o'quvchilarga taqqoslash asosida anglash,mustaqil fikrlashni o'rgatish

Dars shiori:Tilingda bo'lsa boling,

Kulib turar iqboling.

Dars turi: yangi bilim berish

Dars metodi: aqliy hujum, guruhlarda ishlash, mustaqil ish,grammatik o'yin

Dars jihozi:ko'rgazma, plakatlar, slaydlar tarqatma va rag'bat kartochkalari

Darsning borishi 1.**Tashkiliy qism:** salomlashish,davomatni aniqlash.2**daqiqa**

Ma'naviyat daqiqasi:" Kuz",haqida she'r

"Til" she'ri

Kuz fasli ham yetib keldi

Tilimizni e'zoz etgan,

Ortga qolmay deb yana.

Qalb uyimiz obod etgan.

Bolalar oshufta kutar,

Muhabbatni ijod etgan,

Maktablarin sog'ina.

Mir Alisher-ustoz shoir.

'Yurtim"sh e'ri

Mening yurtim Ozbekiston

Jonajonim Vatanim.

Ellarga bo'lgan doston,

Onajonim Vatanim.



Uy vazifasini nazorat qilish.Ikki nafar o'quvchidan so'raladi.81-mashq "Ilm tuganmas xazina" mavzusida matn tuzish.4**daqiqa**

O'tilgan mavzuni so'rash.4daqiqa 'Tarmoq" usulida mustahkamkash

Shaxsni bildiruvchi so'zlar:ona,biz,bola

Narsa -buyumni bildiruvchi so'zlar :daftar,kitob,gul

Belgini bildiruvchi so'zlar:oq,chiroyli ,shirin

Harakatni bildiruvchi so'zlar:o'qi,olmoq, bopmoq.


1. So'zlar qanday xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi?

2. So'zlar qanday xususiyatlariga ko'ra umumiylik kasb etadi?

3. So'zlarni tasniflashda, guruhlarga ajratishda qanday xususiyatlarga asoslanadi?

Demak , tildagi so'zlar ma'nosi va so'rog'iga ko'ra so'z turkumlariga bo'linadi.

So'z turkumlari ko'rgazmasiga tarmoq shaklida chiziladi va o'quvchilar so'z turkumiga oid so'zlarni doskaga yozadilar va aytib beradilar, qoida so'raladi.



Yangi mavzu bayoni: 15-daqiqa

Dars "**aqliy hujum**", "**kuzatish**", "**anglash**", "**hukm** ", **mustahkamlash** kabi qismlaridan iborat. Dars 1-topshiriqqa oid quyidagi saovllar asosida "**aqliy hujum**" bilan boshlandi.

"**Aqliy hujum**" -o'quvchilarga o'qi,keldi, qiziqadi fe'llariga -ma qo'shimchasini qo'shish topshiriladi. Natijada quyidagi so'zlar hosil bo'ladi: *o'qi-o'qima; keldi-kelmadi; qiziqadi-*

qiziqmadi. Hosil qilingan so'zlar doirasida o'qituvchi quyidagi savollar bilan **"aqliy hujum"**ni davom ettiradi: 1.**Bu so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?**

2. **-ma qo'shimchasini olmagan birinchi guruhdagi so'zlari bilan** bu qo'shimchani olgan so'zlarning bir-biridan qanday farqlari bor? **Kuzatish.**O'quvchalar **taqqoslash** asosida so'zlar tarkibi va ma'nosidagi farqlarini aniqlaydilar.**Anglash.**Darsning bu bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini izohlaydi, to'ldiradi va umumlashtiradi. Yuqorida keltirilgan so'zlar bir xil so'roqqa (nima qildi? nima qilmadi?) javob bo'lishi,harakat tushunchasini ifodalashiga ko'ra umumiy xususiyatga egaligini, ya'ni fe'l hisoblanishini, lekin -ma qoshimchasini olmaganlari bajarilmagan harakatni ifodalashi hamda shakliga ko'ra farqlanishini tushuntiradi .

Yangi mavzuni mustahkamlash 15 daqiqa

. Dars yana**"Aqliy hujum"** bilan davom etadi. **"Kim ko'p so'z topa oladi?"** o'yini tarzida 2-topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar nima qildi? nima qilmoqchi? so'roqlariga javob bo'ladigan ko'p so'zlar topish bo'yicha musobaqalashadilar.O'yin shartini uch o'quvchi yozuv taxtasida bajarishi yaxshi samara beradi. Yozilgan so'zlar tarkibiy qismlarga ajratiladi. Namuna: *boradi-bor-di,o'qidim-o'qi-dim, keldim-kel-di-m* kabi. O'qituvchi **"aqliy hujum"** ni davom ettirib, navbatdagi savolni beradi: **Bu so'zlar nimani atayapti?**Albatta o'quvchilar so'zlar shaxs va predmetning harakatini anglatayotganligini aytadilar. **Anglash.**O'qituvchi o'quvchilarga **"Bilib oling", "Esda saqlang"**rukni ostida berilgan fikrlarni o'qish va uqishini topshiradi. **"Aqliy hujum"**.O'quvchilar mutolaani tugatgach, o'qituvchi quyidagi savollar asosida **sinov suhbatini** o'tkazadi:



1.Harakat va holatni bildiruvchi so'zlar qaysi so'roqlarga javob bo'ladi? 2.Shaxs va predmetning harakat va holatini atovchi so'zlar turkumi nima deb ataladi? 3.Harakatni bildiruvchi qanday so'zlarni bilasiz? 4. Harakat va holatni kim bajaradi? Ana shu shaxs yoki narsa nima deb ataladi? Qisqasi dars so'ngida **hukmga** olib kelinadi, ya'ni shu tarzda fe'l haqidagi nazariy bilimlar beriladi.Mavzu mashqlar bajarish asosida

mustahkamlanadi.82-mashq "**Kim zukko va chaqqon?**"o'yini tarzida bajartiriladi. Sinf "Harakat"va"Holat"nomli ikki guruhga bo'linadi. "Harakat" guruhi harakat fe'llarini, "Holat" guruhi holat fe'llarini topadi va o'z daftariga yozadi. guruhlarning bittadan vakili bu shartni yozuv taxtasida bajaradi. Qisqasi. mashq guruhlar va guruh vakillari bellashuvi tarzida bajariladi.Namuna:

Harakat fe'llari	Holat fe'llari
<i>Chopdi</i>	<i>qizardi</i>
<i>sug'ordi</i>	<i>yashardi</i>

83-mashqdagi fe'llarning ma'nosi va grammatik shakliga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga tushirib qoldirilgan qoshimchalarni qo'ydirish asosida, ularda qo'shimchalarni o'rinli qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Uyga vazifa : 85-mashq shartiga ko'ra uy hayvonlarining harakatlarini ifodalovchi fe'llar qatnashgan gaplar yozish beriladi. **2 daqiqa**

O'quvchilar bilimini baholash . 3 daqiqa

Tarqatma materiallar

1.Harakat va holat fe'llarini ajrating:

yashamoq, yurmoq ,turmoq,yiglammoq
,chayqamoq,mudrammoq.

2.Sarg'aydi fe'li ishtirokida gap tuzing

fe'lning ma'noviy guruhini aytib bering .

3.Fe'l qanday soroqlarga javob bo'ladi?

a)kim?nima?

b)nima qildi?nima qilayapti?

c) qanday? qancha?

d)b va sjavoblari to'g'ri

4.Qizardi ,kuldi fe'li qaysi ma'noviy guruhgamansub?

a)harakat fe'li

b)holat fe'li

c)harakat va holat fe'llari

5.Qoraymoq ,ko'karmoq,qizarmoq fe'llari

ishtirokida gaplar tuzing.

6.Daraxtlarning yaproqlari oltinday sarg'aydi gapida

qanday fe'l qo'llangan?

7.Til bayramiga bag'ishlangan tadbirda qatnashaman.

gapida qanday fe'l qo'llangan?

8.Ishladi, yozdi,oldi fe'llari ishtiroki gaplar tuzing

